

## 25-dars

### Darsning mavzusi: So'roq gap (65 – 68-mashqlar)

**Darsning ta'limiy maqsadi:** gap, uning turlari haqida bilimlarni aniqlash va matnni ohang yordamida gaplarga ajratishga, gap oxirida zarur tinish belgilarini to'g'ri qo'yishga o'rgatish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgaralar fikrini anglab, ifodalay olish, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga rioya qila olish; gapning turlarini farqlay olish, gapning ohangiga ko'ra tinish belgilarini ( nuqta, so'roq, undov belgilari) ishlata olish, darak gap haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Qabul qilingan yangi ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq eta olish ko'nikmasini shakllantirish, o'zining xato va kamchiliklarini tushunib, o'zini nazorat qila olsih va xatolarini tuzatishga kirishish; mustaqil o'qib-o'rganish va bilimini muntazam oshirib borishga o'rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** Og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qilgan holda gaplar tuzish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi dars

**Darsning metodi:** suhbat,mustaqil ish metodi, ko'rgazmalilik,"Blits so'rov" ta'limiy o'yini

**Darsning jihozi:** mavzuga oid rasmlar,turli so'zlar yozilgan tarqatmalar.

#### Darsning borishi

##### I.Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash.

##### II.O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

###### Husnixat daqiqasi:

*Birlashgan o'zar,*

*Birlashmagan to'zar*

O'tilgan mavzular yuzasidan "Blits so'rov" metodi yordamida takrorlash qilinadi.

- *Gap deb nimaga aytiladi?*
- *Gapning maqsadiga ko'ra turlarini aytib bering.*
- *Gapning birinchi so'zi qanday harf bilan boshlanadi?*
- *Gapning oxiriga qanday tinish belgilar qo'yiladi?*
- *Darak gap deb nimaga aytiladi?*

- Darak gapning oxiriga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

### Dam olish daqiqasi:

"Men kimman?" o'yini. Guruhlardan 1tadan o'quvchi chiqib, biror bir kasb egasi tasvirlangan rasm ko'rsatmasdan, bosh qismiga kiygizib qo'yiladi. O'tirgan o'quvchilar ushbu kasbning sifatlarini navbat bilan aytishadi. O'quvchi esa ularning ma'lumotlariga asoslanib, bu soha vakilini taxmin qiladi va topadi.

### III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzuni tushuntirishda 65-mashqda berilgan rasmdan foydalaniladi. Rasmni kuzatgan o'quvchilar unga sarlavha topadilar va kichik hikoya tuzadilar. Tuzgan hikoyalarida darak, so'roq va buyruq gaplardan foydalanadilar.

Qoidani yod olish topshiriladi.

**So'rash mazmunini bildirgan gaplar so'roq gaplar deyiladi. So'roq gaplarning oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi.**


### IV. Mustahkamlash.

Darslikdagi 66-mashq yozma bajariladi. Matn o'quvchilar bilan birgalikda o'qiladi. So'roq gaplar topib ko'chiriladi.

*Vaqtini inson foydasiga qanday xizmat qildirish mumkin?*

Berilgan so'roq gapni quyidagi tarzda darak gapga aylantiriladi: *Vaqtini inson foydasiga xizmat qildirish mumkin.*

67-mashq. Berilgan topshiriq quyidagi jadvaldan foydalanib bajariladi.



### V. Darsga yakun yasash.

Dars yakunida o'quvchilar bugungi darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

### VI. Uyga vazifa berish.

68-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.